

## **PRESS-RELIZ**

### **“TURON” MAKTAB TEATRI RESPUBLIKA TANLOVI HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-sonli “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-sonli qarorlari, shuningdek, 2025-yil 10-yanvardagi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Madaniyat vazirligining qo‘shma qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Turon” maktab teatri Respublika tanlovi tashkil etildi.

Mazkur tanlov o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida teatr san’atini keng targ‘ib qilish, ularning notiqlik mahorati va sahna madaniyatini rivojlantirish, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash hamda qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, teatr studiyalari faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Tanlovning asosiy maqsadlari:**

- o‘quvchilarda sahna madaniyati va notiqlik ko‘nikmalarini shakllantirish;
- teatr studiyalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- madaniyat va san’atga qiziqishi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar salohiyatini ro‘yobga chiqarish;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni rag‘batlantirish;
- ilg‘or tajribalarni ommalashtirish.

#### **Tanlov shartlari:**

##### **◆ I shart – “Bizning maktab”**

Ishtirokchi jamoalar 6 daqiqa davomida o‘z maktabining yutuqlarini badiiy-musiqiy va sahna ko‘rinishida namoyish etadi. Ushbu shart 10 ballik tizimda baholanadi.

##### **◆ II shart – “Teatr – ibratxona”**

Jamoalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos sahna asaridan (yoki mualliflik asaridan) 15 daqiqagacha spektakl namoyish etadi. Mazkur shart 30 ballik tizimda baholanadi.

#### **Ishtirokchilar haqida:**

Samarqand viloyati bo‘yicha tanlovda qatnashish uchun jami 7348 nafar 6–10-sinf o‘quvchilari onlayn ro‘yxatdan o‘tdi. Tuman (shahar) bosqichi 2026-yil 2–6-mart kunlari o‘tkazilib, unda viloyatdagi 1276 ta maktabdan jami 10 208 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Saralash natijalariga ko'ra, har bir hududdan 1-o'rinni egallagan jami 16 ta jamoa (128 nafar o'quvchi) viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

### **Viloyat bosqichi natijalari:**

“Turon” maktab teatri Respublika tanlovining Samarqand viloyat bosqichi 2026-yil 3-aprel kuni “Hamid Olimjon” nomidagi teatr binosida o'tkazildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra:

- 1-o'rin — Samarqand shahar 80-maktabning “Turon” jamoasi
- 2-o'rin — Toyloq tumani 26-maktabning “Turon yulduzlari” jamoasi
- 3-o'rin — Kattaqo'rg'on shahar “Buyuk Turon” jamoasi

1-o'rinni qo'lga kiritgan Samarqand shahar 80-maktabning “Turon” jamoasi (8 nafar o'quvchi) joriy yilning may oyida bo'lib o'tadigan Respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Mazkur tanlov yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, teatr san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda milliy madaniyatimizni keng targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.